

E'tibor, e'tirof!



Joriy yilning 22- aprel kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Mangu osmon" spektaklining premyerasi bo'lib o'tgan edi.



Ushbu sahna asari Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshevga bergan ko'rsatmalari asosida ishlab chiqilgan dastur dorasida tayyorlandi.



She'riy-badiiy kompozitsiyalar asosida yaratilgan spektakl Muhammad Yusufning dunyoga kelishidan boshlab, maktab davri, balog'at yoshi, butun hayoti va ijodini qamrab olgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshevning tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar marabbiyi" faxriy unvoni sohibi, professor, sahnalashtiruvchi rejissyor Hamida Mahmudova rahbarligida tayyorlangan spektaklda rollarni Teatr san'ati fakulteti talabalari ijro etishdi.



O'ziga xos tarzda qisqa fursatda yuksak mahorat bilan yaratilgan asar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan yuqori baholanib, "Mangu osmon" spektaklini sahnaga olib chiqishda fidoyilik ko'rsatgan ssenariy muallifi, sahnalashtiruvchi rejissyor, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi" faxriy unvoni sohibi Hamida Mahmudovani moddiy rag'batlantirish haqida aytgan edi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev Hamida Mahmudovaga 5 000 000 so'm miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlash to'g'risidagi sertifikatni tantanali ravishda topshirdi. Institut jamoasi Hamida Mahmudovaning ushbu sahna asarini yuqori baholab, yoshlar murabbiyining bundan keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatiga omadlar tiladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida berilgan topshiriqlari hamda o'tkazilgan majlisning 35-sonli bayoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 502-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf nomidagi stipendiya joriy etildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev ta'sis etilgan "Muhammad Yusuf" nomidagi ushbu stipendiya ko'rik-tanlovi g'oliblarining nomini tantanali ravishda e'lon qildi. Xalq ijodiyoti fakulteti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Ubaydullayev Oltinbek Olim o'g'li, Teatr san'ati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti Bobomurodov Shavkat Do'stmuhammad o'g'li ushbu stipendiyaga munosib deb topildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodini abadiylashtirish, uni bugungi yosh avlod, xalqimiz orasida keng targ'ib qilish borasidagi ishlar davom ettirilmoqda. Ayni paytda institut jamoasi tomonidan Muhammad Yusuf hayoti va ijodini o'zida mujassam etgan badiiylashtirilgan hujjatli filmni tasvirga olish ishlari yakunlanib, montaj jarayonlari olib borilmoqda.

Matbuot kotibi